



UDK 331.45

FUQARO MUHOFAZASI SOHASIDAGI ELEKTRON RAQAMLI BAZASINI FVDTGA INTEGRATSIYA QILISH YO‘LLARI VA USULLARI

QOSIMOV JO‘RABEK SODIQOVICH

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimi

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

Annatatsiya: mazkur maqolada elektron raqamli bazasini FVDTga integratsiya qilish yo‘llari va iqtisodiyot ob‘ektlarida Fuqaro muhofazasi bo‘yicha hujjatlarning elektron raqamli bazasi orqali FVDT tarkibidagi vazirlik va idorlarning Fuqaro muhofazasi sohasida joriy etishning muhim jihatlari yuzasidan so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: FVDT, favqulodda vaziyat, favqulodda vaziyatlarni oldini olish, fuqaro muhofazasi, iqtisodiyot ob‘ekti, fuqaro muhofazasi hujjatlar, elektron raqamli baza.

Аннотация: В данной статье рассматриваются способы интеграции электронной цифровой базы данных в ГСЧС и важные аспекты внедрения системы гражданской защиты министерств и ведомств в рамках ГСЧС посредством электронной цифровой базы данных документов по гражданской защите в экономических объектах.

Ключевые слова: ГСЧС, чрезвычайная ситуация, предотвращение чрезвычайных ситуаций, гражданская защита, экономический объект, документы гражданской защиты, электронная цифровая база данных.

Annotation: This article discusses the methods of integrating an electronic digital database into the State Emergency Service and important aspects of implementing the civil protection system of ministries and departments within the



State Emergency Service through an electronic digital database of civil protection documents in economic facilities.

Key words: *State Emergency Service, emergency situation, emergency prevention, civil defense, economic facility, civil defense documents, electronic digital database.*

Dunyoning barcha mamlakatlarida mukammal qonunchilikni yaratish, uning soʻzsiz bajarilishini taʼminlash, aholi va mansabdor shaxslarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolarning, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining huquq va majburiyatlarini aniq belgilash muhim yoʻnalishlar hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, respublikamiz iqtisodiyot obyektlarida fuqaro muhofazasini elektron hujjatlar bazasini yaratish sohasidagi mavjud muammolarni aniqlash, ularni bartaraf qilish, fuqaro muhofazasi hujjatlarining elektron raqamli bazasining rivojlantirish ahamiyati, aholi xavfsizligini taʼminlashning nazariy va amaliy asoslarini, xorij mamlakatlarda olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar, amaliy tajribalar, zamonaviy ilmiy yondashuvlar va usullarni oʻrganish dolzarb ahamiyatga ega.

Ayni shu sharoitda, iqtisodiyot obyektlarida hujjatlarni yurtish va ularni elektron raqamli bazasini yaratish yuzasidan zamonaviy talablar asosida axborot yigʻish, tahlil qilish va ulardan foydalanish jarayonini ilmiy tadqiq etish, ushbu sohadagi ilgʻor tajribalarni tatbiq qilish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Fuqaro muhofazasi sohasidagi elektron raqamli bazani FVDTga integratsiya qilish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda bir nechta yoʻnalishni belgilab olish maqsadga muvofiqdir. Mazkur yoʻnalishlardagi vazifalarni bajarish ilgʻor xorij tajribalardan foydalanib, mamlakatning ichki imkoniyatlarini inobatga olgan holda, amalga oshirishni taqozo qiladi. Shu oʻrinda sohaning meʼyoriy-huquqiy yoʻnalishdagi muammolaridan kelib chiqqan holda, quyidagilarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.



Birinchidan, respublikada keyingi yillarda tabiiy ofatlar va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar soni va zararining ortib borayotgani hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va harakat qilish tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyojning mavjudligi;

ikkinchidan, favqulodda vaziyatlarning oldini olish sohasida tegishli xizmatlar bilan hamkorlikda harakat qilish mexanizmini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga bo‘lgan zarurat hamda transchegaraviy favqulodda vaziyatlar tahdidining saqlanib qolayotgani.

Qayd etish joizki, 2022-yil 17-avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 9-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organidir deb belgilab qo‘yilgan. Vazirlik o‘z vakolati doirasida vazirlik va idoralar, korxona, muassasa va tashkilotlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar uchun bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar qabul qilish huquqiga ega. Mazkur vakolat doirasida iqtisodiyot obyektlarida fuqaro muhofazasi hujjatlarini yuritish va rasmiylashtirish tartibini belgilab beruvchi yo‘riqnomani ishlab chiqish hamda o‘rnatilgan tartib asosida, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan ro‘yxatdan o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu yo‘riqnomada quyidagi qoidalarning belgilab qo‘yilishi iqtisodiyot obyektlarida hujjatlarni yuritish tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishiga xizmat qiladi. Jumladan, birinchidan, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirish Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi 171-sonli qarorining asosiy vazifasi bo‘lib, iqtisodiyot obyektlarida fuqaro muhofazasi bo‘yicha yuritiladigan hujjatlar tizimi tizimosti elementi sifatida faoliyat yuritishi. Chunki fuqaro muhofazasi bo‘yicha hujjatlar tizimi FVD Tning



funksional va hududiy tizimosti elementlari FVning oldini olish va ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan faoliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi;

ikkinchidan, Fuqaro muhofazasi bo'yicha hujjatlar tizimining tashkiliy strukturasi asosini FVDT tarkibidagi vazirlik, idoralarning tashkiliy strukturasi tashkil etishi va shunga mos ravishda boshqaruv uch darajada: respublika, mahalliy va obyekt bo'yicha tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bunda har bir daraja bo'yicha alohida fuqaro muhofazasi bo'yicha hujjatlarning ishlab chiqilishi nazarda tutiladi;

uchinchidan, iqtisodiyot obyektlarida fuqaro muhofazasi bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va yuritishda obyektlarning toifa darajasi, ishlab chiqarishdagi xavflilik darajasini inobatga olgan fuqaro muhofazasi bo'yicha ishlab chiqilishi lozim bo'lgan hujjatlar ro'yxati aniq belgilab berilishi lozim. Ya'ni bugungi kunda mamalakatimizda mavjud bo'lgan iqtisodiyot obyektlari toifa darajasi bo'yicha o'ta muhim va toifalangan obyektlar, ta'lim muassasalari, ijtimoiy soha obyektlari kabi turlarga ajratib, har bir tur uchun fuqaro muhofazasi bo'yicha hujjatlarning ro'yxatini alohida shakllantirish lozim.

to'rtinchidan, xorijiy mamalakatlarning tajribasi asosida iqtisodiyot obyektlarida ishlab chiqilishi lozim bo'lgan hujjatlarning ro'yxatini shakllantirish va shu asosda har bir ro'yxatga kiritilgan bandlarni Fuqaro muhofazasi bo'yicha respublikamizda mavjud bo'lgan me'yoriy-huquqiy asoslarga bog'lash. Kelgusida, respublikamizdagi iqtisodiyot obyektlarida fuqaro muhofazasi bo'yicha hujjatlarning yagona namunasini yaratish tizimiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda yuqorida o'rganilgan davlatlarning huquqiy bazalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Bunda asosiy e'tibor har bir fuqaro muhofazasi bo'yicha ishlab chiqiladigan hujjatlarni respublikamizda fuqaro muhofazasi bo'yicha qonun hujjatlariga asoslangan holda bog'lash, ya'ni ishlab chiqiladigan hujjatni qaysi me'yoriy-huquqiy hujjat asosida ishlab chiqilishini ko'rsatib berish;



beshinchidan, xorijiy davlatlar tajribasi asosida iqtisodiyot obyektlarida ishlab chiqilishi lozim bo'lgan hujjatlarning yagona tizimini yaratish va u mamlakatimizdagi iqtisodiyot obyektlarida fuqaro muhofazasi sohasida amaliyotga tatbiq etish bo'yicha yuzasidan tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish. Iqtisodiyot obyektlarida fuqaro muhofazasi bo'yicha hujjatlarni ishlab chiqish tizimini rivojlantirishning tashkiliy tadbirlari ham borki, ular tizimni rivojlantirishdagi tashkiliy tadbirlarning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi;

oltinchidan, iqtisodiyot obyektlarida Fuqaro muhofazasi bo'yicha faoliyat olib boruvchi shtat asosidagi va mazkur faoliyat bo'yicha o'rindoshlik, ustama haq evaziga, vaqtinchalik vazifalar yuklatilgan xodimlarni soha yo'nalishi bo'yicha tayyorgarlik darajasini oshirish, fuqaro muhofazasi bo'yicha ma'sul shaxslarni tez-tez o'rin almashishlariga barham berish. Bu orqali iqtisodiyot obyektlarida Fuqaro muhofazasi bo'yicha hujjatlarni yuritish va ijrosini ta'minlash, shuningdek, obyektlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va insonlarning hayotini asrab qolish va iqtisodiyotga yetkazilishi mumkin bo'lgan iqtisodiy zararni kamaytirishga erishiladi;

yettinchidan, iqtisodiyot obyektlarida Fuqaro muhofazasi sohasidagi elektron raqamli bazani yaratish va amaliyotga tatbiq etish, foydalanuvchiga har tomonlama qulayliklar yaratish, ya'ni barcha ijtimoiy tarmoq foylanuvchilarining barcha qatlami foydalanishi hamda Fuqaro muhofazasi sohasida bo'layotgan muhim o'zgarishlarga mos ravishda elektron bazaga tegishli o'zgarish va qo'shimchalarni kiritib borish;

sakkizinchidan, vazirlik va idoralar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar natijasida O'zbekiston Respublikasining fuqaro muhofazasi sohasidagi qonunlarida belgilangan vazifalarning ijrosini to'laqonli ta'minlash, Fuqaro muhofazasi tuzilmalarining faoliyat samaradorligini oshirish, takomillashtirish va mazkur tuzilmalarning faoliyatini mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asosan tashkil etish. Tuzilma faoliyati davomida moddiy-texnik ta'minot me'yorini davr



talablari asosida jihozlashda ularning shtat birliklari va mulkchilik shakli o'zgartirilganligini inobatga olish.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan, aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish milliy xavfsizlikni ta'minlash siyosatida eng muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bunday sharoitlarda davlat nazoratining susayishi, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishning huquqiy va iqtisodiy mexanizmlari samaradorligining yetarli emasligi xo'jalik faoliyatining barcha sohalarida texnogen xususiyatli halokatlar tahdidini oshiradi. Dunyoda sodir bo'layotgan tabiiy ofatlar va texnogen favqulodda vaziyatlar hamda global ekologik muammolarning oshib borishi kuzatilayotgan bir davrda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida, profilaktik chora-tadbirlarning o'z vaqtida va samarali olib borilishi, inson hayot maromini izdan chiqishini, insonlarning bevaqt hayotdan ko'z yumishlarini hamda iqtisodiyotga yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar miqdorini kamaytirish demakdir. O'zbekiston Respublikasining "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida", "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi, "Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasiga oid qarorlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri – Fuqaro muhofazasi boshlig'ining qabul qilgan hujjatlari talablarini respublikamizdagi barcha iqtisodiyot obektlarda to'liq bajarilishi ta'minlash maqsadida, "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni 11-moddasi 18-qismida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha mutaxassis shtat lavozimi mavjud bo'lmagan obyektlarda (tashkilot va idoralarda) mas'ul shaxslar tayinlanishi belgilangan.



Bugungi kunda mavjud iqtisodiyot obyektlarida fuqaro muhofazasi bo'yicha mas'ul shaxslar vazifasi vaqtinchalik yoki jamoatchilik asosida birlashtirilgan. Hozirgi vaqtda respublika FVDT tarkibilagi 45 ta vazirlik va idoralarning respublika darajasida 400 ortiq, hududiy darajada 356 nafardan ortiq xodimlar, shuningdek, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining yig'ma komondalarining 220 nafar fuqaro muhofazasi bo'yicha mas'ul shaxslar bundan tashqari respublikamiz hududida faoliyat ko'rsatayotgan davlat boshqaruv organlari, ijtimoiy soha, ishlab chiqarish obyektlari xodimlari soni 50 nafardan ortiq bo'lgan 15653 ta iqtisodiyot obyektlarida, 11347 nafar ijtimoiy soha obyektlarining fuqaro muhofazasi mas'ul bo'lgan shaxslarning tomonidan "E-elektron fuqaro muhofazasi hujjatlari" dasturiy ta'minot yordamida iqtisodiyot obyektlarida fuqaro muhofazasi hujjatlarini ishlab chiqish va faoliyatida foydalanishga xizmat qiladi.

Iqtisodiyot obyektlarida fuqaro muhofazasi bo'yicha hujjatlarning ishlab chiqilishi va boshqa tadbirlarni amalga oshirish tizimining respublika darajasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy jihatdan rahbarlik qilish, Favqulodda vaziyatlar vazirligi Favqulodda vaziyatlar davlat tizimi va fuqaro muhofazasi tuzilmalari faoliyatini va hamkorligini tashkil erish boshqarmasi, Tuzilmalarni hamkorlikdagi harakatlarini tashkil etish bo'limi zimmasiga yuklatish mumkin. Chunki hozir ushbu bo'lim respublika miqyosida iqtisodiyot obyektlarining fuqaro muhofazasi bo'yicha tadbirlarini amalga oshirilishi yuzasidan ma'lumotlarni umumlashtirib, FVning oldini olish va oqibatlarini kamaytirishga xizmat qiluvchi kuch va vositalarning tayyorgarligi bo'yicha shug'ullanib kelmoqda.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, aholi hayotini va salomatligini, moddiy va ma'naviy qadriyatlarni muhofaza qilish, shuningdek, tinchlik va harbiy davrlarda favqulodda vaziyatlar vujudga kelganda, ularning oqibatlarini tugatish hamda zararlarini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish vazirlikning asosiy vazifalaridan biri etib belgilandi.



FVDT Vazirlar Mahkamasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, vazirliklar, idoralar, mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning majburiyatlari belgilab berilgan. Jumladan, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha zarur choralarni rejalashtirishlari, moliyalashlari va amalga oshirishlari, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish rejalariga muvofiq o'z tasarrufidagi obyektlarda avariya-qutqaruv ishlari o'tkazilishini ta'minlashlari belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasida aholi va hududlarning xavfsizligini ta'minlash borasida asosiy muammolarni hal etish, favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi faoliyati samaradorligini yanada oshirish maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi 171-sonli qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlandi. Nizomga ko'ra, quyidagilar FVDT asosiy vazifalari hisoblanadi:

respublikada ro'y berishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni prognoz qilish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish yuzasidan maqsadli va ilmiy-texnik dasturlarni hamda tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish.

FVDT faoliyatining yuqori tayyorgarlik va favqulodda vaziyat rejimlari ro'y bergan favqulodda vaziyatning turiga qarab Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining, shuningdek tegishli obyektlar rahbarlarining qarorlari bilan joriy etiladi.

Nizomning 6-bandida, FVDT ning asosiy vazifasi sifatida, tinchlik va alohida davrda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va ijrosini ta'minlash ko'rsatib o'tilgan. Obyektlar darajasida FVDT boshqaruv



organlarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilab berilgan, jumladan: favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, obyektlarning barqaror ishlashi imkoniyatini oshirishga doir tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga rahbarlik qilish, texnogen avariya va boshqa turdagi favqulodda vaziyatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan omillarni erta aniqlash, ular sodir bo'lganda oqibatlarini prognozlashtirish hamda ularni bartaraf etish tadbirlarini rejalashtirish, obyektlarda va ularga yondosh hududlarda aholiga xabar berish, boshqaruv organlarining, obyektlar kuch-vositalarining favqulodda vaziyatlardagi harakat qilishga tayyorligini ta'minlash, qutqaruv xizmatlari, qutqaruv va fuqaro muhofazasi tuzilmalarini belgilangan tartibda tashkil etish, obyektning zarar ko'rgan xodimlarini va obyekt yaqinida yashaydigan aholini evakuatsiya qilish va hayot sharoitlarini ta'minlash, xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlar uchun texnik hujjatlar nusxalarini yaratish va saqlash ishlarini tashkil etish kabi tadbirlarini tashkil etish belgilangan. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni bajarish va obyektlar darajasida FVDT boshqaruv organlarining faoliyatini tashkil etish uchun fuqaro muhofazasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda ularni ijrosini ta'minlash bo'yicha vazifalar yuklatilgan.

Qayd etish joizki, obyektlar darajasida FVDT boshqaruv organlarining fuqaro muhofazasi bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar FVDT tarkibidagi vazirlik va idoralarning deyarli barchasida ishlab chiqilsa-da, amalga oshirilgan tadbirlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi FVVga taqdim etishi belgilangan bo'lsa-da, fuqaro muhofazasi bo'yicha hujjatlarni tayyorlash, ularni saqlash muddati, vositasi va yagona shakli ishlab chiqilmagan. Bu esa, o'z navbatida, hujjatlarni umumlashtirish, guruhlashtirish hamda tahlil qilishda qo'shimcha chora-tadbirlarni talab qiladi. Shu bilan birga, respublikamizdagi vazirlik va idoralar va iqtisodiyot obyektlarida Fuqaro muhofazasi tuzilmalarini tashkil etish va doimiy faoliyatini ta'minlash bo'yicha bir qator qonunosti hujjatlari mavjud. Iqtisodiyot obyektlarida fuqaro muhofazasi tadbirlarini tashkil etish va doimiy faoliyat olib borishini



ta'minlash maqsadida, aholining hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, uning favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorgarligini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-iyundagi 369-sonli qarori tasdiqlandi.

Mazkur qarorga ko'ra, davlat va xo'jalik boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar uch oy muddatda fuqaro muhofazasi tuzilmalarining ichki nizomlarini ishlab chiqib (qayta ishlab) O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlash, shuningdek, qabul qilgan idoraviy me'yoriy-huquqiy hujjatlarini ushbu qaror talablariga moslashtirishlari belgilangan. Bu orqali Fuqaro muhofazasi sohasidagi elektron raqamli bazani FVDTga integratsiya qilishda muhim jihat bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida, xorijiy mamlakatlarda bu borada amalga oshirilayotgan tadbirlarga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Fuqaro muhofazasi sohasidagi elektron raqamli bazani FVDTga integratsiya qilishi orqali iqtisodiyot obyektlarida ichki hujjatlarni elektron shaklga o'tkazishning boshqa afzalliklari ham bor.

Iqtisodiyot obyektidagi joyni tejash.

Qog'oz ishini yuritish uchun zarur bo'lgan ofis materiallariga - qog'oz, ruchka, qalamlar, papka, fayl va boshqalarga pulni tejash.

Iqtisodiyot obyektida fuqaro muhofazasi bo'yicha yagona axborot maydonini yaratish.

Hujjatlarning yo'qolish xavfini kamaytirish.

Takrorlanishning oldini oladigan, yagona hujjatlar bazasini yaratish.

Hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish.

Iqtisodiyot obyektidagi hujjatlarni tarqatishni tezlashtirish.

Ekologiya haqida g'amxo'rlik qilish – qog'oz va yog'och safini kamaytirish.



Nujjatlar bilan ishlash (yaratish, tasdiqlash, imzolash) bo'yicha xodimlarning ish vaqtini tejash. Bu ish jarayonini optimallashtiradi va korxonaning xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyot obyektlarida fuqaro muhofazasi bo'yicha tadbirlarning to'g'ri bajarilishi yuzasidan muntazam tekshiruv o'tkazish va uslubiy yordam ko'rsatish tartibini joriy etish lozim deb hisoblaymiz. Ayni shu maqsadda, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishdan biri sifatida – favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga qaratilgan maqsadli va ilmiy-tadqiqot dasturlarini ishlab chiqish iqtisodiyot obyektlarida Fuqaro muhofazasi sohasida hujjatlarni takomillashtirishda AKTdan foydalanish bugungi davr talabi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu orqali iqtisodiyot obyektlarida fuqaro muhofazasi sohasida ishlovchilar va boshqa fuqarolarning fuqaro muhofazasi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishishlari va ularda belgilangan huquq va majburiyatlardan keng foydalanish imkoniyati bersa, fuqaro muhofazasi sohasida aholining huquqiy savodxonligini oshirishga xizmat qilishi amalda isbotlandi.

Iqtisodiyot obyektlarida ishlab chiqilgan Fuqaro muhofazasi sohasidagi hujjatlarning elektron raqamli bazasidan foydalanishda, FVDTga integratsiyalashda iqtisodiyot obyektlarida va xizmatlarida Fuqaro muhofazasi tadbirlarini bajarish maqsadida, ushbu obyektlarning geografik joylashuvi, texnologik jarayoni va ishlatiladigan xomashyolarning turlari va miqdori, obyektlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlar va mavjud shart-sharoitlar, ishchi-xizmatchilar hamda aholining soni va zichligini hamda yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni hisobga olgan holda Fuqaro muhofazasi tuzilmalari tashkil etish samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 17-avgustda "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish



to'g'risida"gi O'RQ-790-sonli yangi tahrirdagi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi axborot-huquqiy tizimi "Lex.uz", 2022 yil.1-2 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 171-sonli qarori. // O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi axborot-huquqiy tizimi "Lex.uz". 6-11 b.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi tuzilmalari va ular tuziladigan tashkilotlarni belgilash tartibi to'g'risidagi Nizomning hamda tuzilmalarni moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlash (tabellashtirish) meyorini tasdiqlash to'g'risida"gi 369-sonli qarori, 17 b.

4. Sadikov Sh.M. Korxona va muassasalarda elektron hujjat almashuvini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi qoshidagi Oliy biznes maktabi. Toshkent, 2012 y. 108 bet.

5. Alibayev X.N, Qosimov J.S. Fuqaro muhofazasi sohasidagi elektron raqamli bazani amaliyotga joriy etish etishdagi muamolar va uni hal etish yo'llari. "Yong'in-portlash xavfsizlik" ilmiy-amaliy elektron jurnali. 2024-yil 2 (15) son 7-13 b.